

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ESG STANDARTLARINI JORIY QILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

*Bekmirzayeva Umida Abdug‘ani qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti Tadbirkorlik  
va korporativ huquq sho‘basi o‘qituvchisi*

*E-mail: u.bekmirzayeva@tsul.uz*

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarining mohiyati, kelib chiqish tarixi hamda ularning zamonaviy global iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ESG konsepsiyasining shakllanishi, uning barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda xalqaro moliya va korporativ boshqaruv tizimlaridagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasida ESG standartlarini joriy etishning huquqiy asoslari, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va davlat strategiyalarining mazmuni o‘rganiladi. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, yashil iqtisodiyotga o‘tish dasturlari hamda ekologik va korporativ boshqaruvga oid qonunchilik normalarining ESG tamoyillarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda ESG standartlarini joriy etish jarayoni hali shakllanish bosqichida ekani, biroq barqaror iqtisodiy rivojlanish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan ushbu standartlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ESG standartlari, barqaror rivojlanish, korporativ boshqaruv, yashil iqtisodiyot, ekologik siyosat, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ shaffoflik, investitsiya muhitini rivojlantirish, O‘zbekiston qonunchiligi.

### I. KIRISH

So‘nggi yigirma yil davomida korporativ boshqaruv, investitsiya siyosati va biznes boshqaruvida eng muhim tushunchalardan biri ESG (Environmental, Social, Governance) konsepsiyasi hisoblanadi. Ushbu tushuncha korporativ huquq, moliya va investitsiya sohalaridagi zamonaviy bahslarning markazida turadi. <sup>1</sup>Biroq, ESG atamasi bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, uning qayerdan paydo bo‘lgani, kim tomonidan ishlab chiqilgani va dastlab qanday maqsadlarni ko‘zlagani haqida ko‘pchilik yetarli darajada ma’lumotga ega emas.

Hozirgi kunda trillionlab dollar mablag‘lar ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya fondlariga yo‘naltirilmoqda. Shu bilan birga, kompaniyalar ESG siyosatini

<sup>1</sup> Pollman E. The Making and Meaning of ESG. ECGI Law Working Paper No. 659/2022.

ishlab chiqmoqda va davlat organlari ESG bilan bog‘liq tartibga solish mexanizmlarini yaratmoqda. Biroq ESG tushunchasi turli kontekstlarda turlicha talqin qilinmoqda: ba’zi mutaxassislar uni investitsiya tahliliga ekologik va ijtimoiy omillarni kiritish deb hisoblasalar, boshqalar uni korporativ ijtimoiy mas’uliyat yoki hatto siyosiy-ideologik konsepsiya sifatida baholaydilar.<sup>2</sup>

## II. METODLAR

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning bir qator metodlaridan foydalanildi. Avvalo, ESG konsepsiyasining nazariy asoslarini aniqlash maqsadida tahlil va sintez usullari qo‘llanildi. Shuningdek, ESG konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishda tarixiy-huquqiy metoddan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ESGning zamonaviy qo‘llanilish yo‘nalishlarini aniqlash uchun komparativ-huquqiy tahlil ham amalga oshirildi. Ushbu metod orqali xalqaro ilmiy manbalar, investorlar amaliyoti va korporativ boshqaruv tizimidagi tendensiyalar o‘rganildi. Bundan tashqari, ESG konsepsiyasining huquqiy asoslarini tahlil qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, jumladan ekologiya, mehnat huquqi va korporativ boshqaruv bilan bog‘liq qonun hujjatlari ham tahlil qilindi.

## III. ASOSIY QISM

Korporatsiyalar va ularning jamiyat oldidagi mas’uliyati haqidagi bahslar aslida yangi emas<sup>3</sup>. Korporatsiyaning jamiyatdagi roli, uning maqsadi va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlari yuzasidan<sup>4</sup> munozaralar uzoq tarixga ega.<sup>5</sup>

XX asr davomida bu masala bir necha bosqichda rivojlandi:

- korporatsiyalarning jamiyatdagi roli haqida ilmiy bahslar;
- corporate social responsibility (CSR) tushunchasining paydo bo‘lishi;<sup>6</sup>
- korporativ boshqaruv tizimining rivojlanishi;
- investorlarning ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalarga qiziqishi.

Shu tarixiy jarayonlar fonida XXI asr boshida yangi termin – ESG paydo bo‘ldi. Ammo qanday? ESG tushunchasi zamonaviy ilmiy va iqtisodiy muomalaga nisbatan yaqinda kirib kelgan bo‘lsa-da, uning nazariy ildizlari ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. XX asrning 1960–1970-yillarida G‘arb mamlakatlarida paydo bo‘lgan ijtimoiy mas’ul investitsiyalar (Socially Responsible Investment)<sup>7</sup> konsepsiyasi investorlarni faqat moliyaviy foyda emas, balki kompaniyalar faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini ham hisobga olishga undagan. Keyinchalik ekologik muammolar, iqlim

<sup>2</sup> Pollman E. The Making and Meaning of ESG. ECGI Law Working Paper No. 659/2022.

<sup>3</sup> Ho V. Enlightened Shareholder Value: Corporate Governance Beyond the Shareholder-Stakeholder Divide. Journal of Corporate Law, 2010.

<sup>4</sup> Mayer C. Prosperity: Better Business Makes the Greater Good. Oxford University Press, 2018

<sup>5</sup> Bebchuk & Tallarita, The Illusory Promise of Stakeholder Governance (2020)

<sup>6</sup> Howard R. Bowen, Social Responsibilities of the Businessman (1953)

<sup>7</sup> Townsend B. From SRI to ESG: The Origins of Socially Responsible and Sustainable Investing. Journal of Impact and ESG Investing, 2020.

o‘zgarishi va global tengsizlik masalalarining keskinlashuvi bu yondashuvni yanada rivojlantirdi.<sup>8</sup>

Keyingi yillarda ESG konsepsiyasi global iqtisodiy tizimda tez sur‘atlar bilan tarqaldi. Ayniqsa 2015-yilda qabul qilingan Parij iqlim kelishuvi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)<sup>9</sup> ESG standartlarini rivojlantirish uchun muhim siyosiy va institutsional asos yaratdi.<sup>10</sup> Natijada ko‘plab davlatlar, moliyaviy institutlar va yirik korporatsiyalar o‘z faoliyatida ESG mezonlarini joriy etishni boshladi. Demak xulosa qilishimiz mumkinki, ESG tushunchasining shakllanishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) muhim rol o‘ynagan.

XX asrning ikkinchi yarmida BMT biznes sektori bilan ehtiyotkor munosabatda bo‘lgan. Ayniqsa sovuq urush davrida xalqaro korporatsiyalar iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin degan xavotir mavjud edi. Biroq 1990-yillarga kelib global iqtisodiyot va globalizatsiya jarayonlari kuchaygani sababli BMT biznes sektorini muammolarni hal qilishda hamkor sifatida ko‘ra boshladi. 1999 yilda BMT bosh kotibi Kofi Annan Davos iqtisodiy forumida mashhur nutq so‘zlab, Global Compact tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbus kompaniyalarni quyidagi yo‘nalishlarda umumiy tamoyillarga amal qilishga chaqirdi:

- inson huquqlari
- mehnat standartlari
- atrof-muhitni muhofaza qilish
- korrupsiyaga qarshi kurash.<sup>11</sup>

Bu tashabbus keyinchalik ESG konsepsiyasining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. ESG atamasi 2004 yilda BMT tashabbusi bilan tayyorlangan “Who Cares Wins” hisobotida birinchi marta qo‘llanilgan.<sup>12</sup> Ushbu loyiha doirasida dunyoning yirik moliyaviy institutlari, jumladan:

- Goldman Sachs
- Morgan Stanley
- UBS
- Deutsche Bank
- HSBC

kabi banklar hamkorlik qilgan. Mazkur hisobot moliya institutlari va investorlarni kompaniyalar faoliyatini baholashda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini integratsiya qilishga chaqirdi. Hisobotning asosiy g‘oyasi shundan iborat

<sup>8</sup> Schanzenbach & Sitkoff, Reconciling Fiduciary Duty and Social Conscience (2020)

<sup>9</sup> United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development (SDGs). 2015.

<sup>10</sup> United Nations. Paris Agreement. 2015.

<sup>11</sup> United Nations Global Compact. The Ten Principles of the UN Global Compact. 2000.

<sup>12</sup> UNEP Finance Initiative. Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. 2004.

ediki, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga emas, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga ham bog‘liqdir.<sup>13</sup>

Hisobotda investitsiya qarorlarini qabul qilishda quyidagi uchta omilni hisobga olish zarurligi ta’kidlangan:

- *E – Environmental* atrof-muhit bilan bog‘liq masalalar (iqlim o‘zgarishi, resurslardan foydalanish)
- *S – Social* ijtimoiy masalalar (mehnat sharoitlari, inson huquqlari, jamiyat bilan munosabatlar)
- *G – Governance* korporativ boshqaruv (direktorlar kengashi, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi siyosat).<sup>14</sup>

Ushbu hisobotga ko‘ra, ESG omillarini hisobga olish kompaniyalar uchun nafaqat ijtimoiy foyda, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ham ta’minlashi mumkin.

#### IV. NATIJALAR

ESG atamasi dastlab investitsiya tahliliga qo‘shimcha omillar sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Dastlab investorlar uchun ESG omillari kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv bilan bog‘liq risklarni aniqlash vositasi sifatida qaralgan. Keyinchalik esa ushbu tushuncha korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish va investitsiya siyosatining muhim elementi sifatida shakllandi.

Hozirgi kunda ESG turli yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda. Avvalo, investorlar kompaniyalarni baholash jarayonida faqat moliyaviy natijalarga emas, balki ularning atrof-muhitga, jamiyatga va boshqaruv tizimiga ta’sirini ham hisobga olishni boshladilar. Bunday yondashuv kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi va risklarini to‘liqroq baholash imkonini beradi. Masalan, ekologik talablarga rioya qilmaydigan yoki ijtimoiy mas’uliyatsiz faoliyat yuritadigan kompaniyalar kelajakda jiddiy moliyaviy va reputatsion yo‘qotishlarga duch kelishi mumkin.

Ikkinchidan, ESG omillari kompaniyalar uchun turli risklarni aniqlash va boshqarish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ular ekologik risklar, masalan, atrof-muhitni ifloslantirish yoki iqlim o‘zgarishiga bog‘liq muammolarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, kompaniyaning obro‘sigga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan reputatsion risklar, xodimlar bilan bog‘liq ijtimoiy konfliktlar hamda korporativ boshqaruv tizimidagi kamchiliklar ham ESG tahlili orqali aniqlanishi mumkin. Shu sababli ESG ko‘rsatkichlari ko‘plab investorlar va kompaniyalar uchun strategik risklarni boshqarish vositasi sifatida qaralmoqda.<sup>15</sup>

<sup>13</sup> Edmans A. *Grow the Pie: How Great Companies Deliver Both Purpose and Profit*. Cambridge University Press, 2020.

<sup>14</sup> Pollman E. *The Making and Meaning of ESG*. ECGI Law Working Paper No. 659/2022.

<sup>15</sup> Serafeim G. *ESG: Hyperboles and Reality*. Harvard Business School Working Paper, 2021.

Uchinchidan, ko‘plab kompaniyalar ESG tamoyillarini o‘zlarining barqaror rivojlanish strategiyasining muhim qismi sifatida qabul qilmoqda. Bunda korxonalar nafaqat moliyaviy natijalarga erishishni, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlash, xodimlar va jamiyat bilan mas‘uliyatli munosabatlarni rivojlantirish hamda shaffof korporativ boshqaruv tizimini yaratishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar. Bu esa kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va investorlar uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.<sup>16</sup>

To‘rtinchidan, ESG konsepsiyasi barcha mutaxassislar tomonidan bir xil baholanmaydi. Ayrim tanqidchilar ESGni korporativ boshqaruv tizimiga siyosiy yoki ideologik ta‘sir o‘tkazish vositasi sifatida ham talqin qiladilar. Ularning fikricha, ba‘zi hollarda ESG talablari kompaniyalarga iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lmagan, biroq siyosiy yoki ijtimoiy jihatdan ma‘qul hisoblangan qarorlarni qabul qilishga bosim o‘tkazishi mumkin.

## V. MUHOKAMALAR

Shunga qaramay, ESG konsepsiyasining keng tarqalishiga bir qator muhim omillar sabab bo‘ldi. Avvalo, ESG investorlar uchun kompaniyalarni yanada kengroq va chuqurroq baholash imkonini yaratadi. Ikkinchidan, ESG tamoyillari kompaniyalar uchun uzoq muddatli strategik barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi. Uchinchidan, ESG amaliyotlari biznes va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, global miqyosda ekologik va ijtimoiy muammolarga e‘tibor kuchaygani ham ESGning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Natijada, bugungi kunda ESG global investitsiya tizimining muhim elementiga aylandi. Investorlar, moliyaviy institutlar va kompaniyalar ESG tamoyillarini investitsiya qarorlari va korporativ strategiyalarda tobora ko‘proq qo‘llamoqdalar.

Biroq ESG konsepsiyasi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, ESG ko‘rsatkichlari uchun yagona global standartlar hali to‘liq shakllanmagan. Turli reyting agentliklari tomonidan beriladigan ESG baholari ko‘pincha bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa investorlar uchun ma‘lum darajada noaniqlik keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ESG faoliyati bilan kompaniyaning moliyaviy samaradorligi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni aniq empirik ravishda isbotlash ham murakkab masala hisoblanadi. Yana bir muhim muammo sifatida “greenwashing” — ya‘ni kompaniyalar tomonidan faqat tashqi ko‘rinishda ekologik yoki ijtimoiy mas‘uliyatli faoliyat yuritayotganini ko‘rsatishga qaratilgan amaliyotlar mavjudligi ham tilga olinadi.<sup>17</sup>

Shu sababli ESG tizimi bugungi kunda faol rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning kelajakdagi samaradorligi va huquqiy tartibga solinishi bilan bog‘liq masalalar ilmiy va amaliy muhokamalar markazida bo‘lib qolmoqda.

<sup>16</sup> Eccles R., Klimenko S. The Investor Revolution. Harvard Business Review, 2019.

<sup>17</sup> Pollman E. **The Making and Meaning of ESG**. ECGI Law Working Paper No. 659/2022.

O‘zbekiston Respublikasida ESG (Environmental, Social, Governance) tushunchasi hali alohida yagona qonun bilan tartibga solinmagan bo‘lsa-da, uning asosiy elementlari turli normativ-huquqiy hujjatlar orqali qisman tartibga solingan. ESG konsepsiyasi asosan korporativ boshqaruv, ekologiya, mehnat huquqi va investorlarni himoya qilish bilan bog‘liq normalar orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli O‘zbekiston qonunchiligida ESGni o‘rganish ushbu uch asosiy yo‘nalish – ekologik tartibga solish, ijtimoiy munosabatlar va korporativ boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi.

Avvalo, ESGning ekologik komponenti O‘zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligi orqali tartibga solinadi. Bu sohada “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonunda atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy prinsiplari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va ekologik nazorat tizimi belgilangan.<sup>18</sup> Bundan tashqari, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq loyihalarning atrof-muhitga ta‘sirini oldindan baholash mexanizmlarini belgilaydi.<sup>19</sup> “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”,<sup>20</sup> “Chiqindilar to‘g‘risida”<sup>21</sup> hamda “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi<sup>22</sup> qonunlar ham ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu normalar korxonalar faoliyatining ekologik oqibatlarini nazorat qilish, chiqindilarni boshqarish, atmosfera ifloslanishini kamaytirish hamda tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shu jihatdan ushbu qonunchilik ESG konsepsiyasining “Environmental” komponentining huquqiy asosini tashkil etadi.

ESGning ijtimoiy komponenti esa asosan mehnat huquqi va inson huquqlariga oid normalar orqali tartibga solinadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muhim ahamiyatga ega. Unda xodimlarning mehnat qilish huquqi, mehnat sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi.<sup>23</sup> “Aholining bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, gender tenglikka oid hujjatlar va ijtimoiy himoya tizimi ham ESGning “Social” komponentiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur normalar korxonalarining xodimlar bilan munosabatlari, mehnat sharoitlari va ijtimoiy mas‘uliyatini huquqiy jihatdan belgilab beradi.

ESG konsepsiyasining uchinchi elementi – korporativ boshqaruv masalalari O‘zbekiston Respublikasining korporativ huquq tizimi orqali tartibga solinadi. Bu borada “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.

to‘g‘risida”gi Qonun asosiy huquqiy manba hisoblanadi.<sup>24</sup> Mazkur qonunda aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari, direktorlar kengashi vakolatlari, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, axborot oshkoraligi va korporativ nazorat mexanizmlari belgilangan. Bundan tashqari, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun investorlarni himoya qilish, emitentlar faoliyatining shaffofligini ta‘minlash hamda moliyaviy axborotlarni oshkor qilish bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladi.<sup>25</sup> Shuningdek, O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan Korporativ boshqaruv kodeksi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda direktorlar kengashining mustaqilligi, audit tizimi, risklarni boshqarish hamda kompaniya faoliyatining shaffofligini ta‘minlashga qaratilgan tamoyillar belgilangan.<sup>26</sup>

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda barqaror rivojlanish va ESG tamoyillariga oid yangi yondashuvlar ham shakllanib bormoqda. Xususan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, shuningdek “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ekologik barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.<sup>27</sup> Shu bilan birga, ayrim yirik kompaniyalar xalqaro standartlar asosida barqaror rivojlanish yoki ESG hisobotlarini e‘lon qilish amaliyotini joriy etmoqda.

## VI. XULOSA

Shunday qilib, O‘zbekiston qonunchiligida ESG konsepsiyasi to‘liq yagona institut sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, uning asosiy elementlari turli sohalardagi qonunchilik orqali qisman tartibga solinadi. ESGni O‘zbekiston huquqiy tizimida chuqur o‘rganish uchun ekologik qonunchilik, mehnat huquqi, inson huquqlari, korporativ boshqaruv hamda investorlarni himoya qilish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarni kompleks tarzda tahlil qilish zarur. Shu asosda kelajakda ESG tamoyillarini milliy korporativ huquq tizimiga yanada chuqur integratsiya qilish imkoniyatlari ham shakllanishi mumkin.

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksi.

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4477-son Qarori

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### I. Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar

1. United Nations Global Compact. The Ten Principles of the UN Global Compact. United Nations, 2000.
2. United Nations Environment Programme Finance Initiative (UNEP FI). Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. UN Report, 2004.
3. Principles for Responsible Investment (PRI). Principles for Responsible Investment. United Nations, 2006.
4. OECD. OECD Principles of Corporate Governance. Paris: OECD Publishing, 2015.
5. European Commission. Sustainable Finance Disclosure Regulation (SFDR), Regulation (EU) 2019/2088.
6. International Sustainability Standards Board (ISSB). IFRS Sustainability Disclosure Standards. IFRS Foundation, 2023.
7. Global Reporting Initiative (GRI). GRI Sustainability Reporting Standards. Amsterdam, 2021.

### II. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4477-son Qarori

### III. Ilmiy maqolalar va akademik manbalar

1. Pollman E. The Making and Meaning of ESG. ECGI Law Working Paper No. 659/2022.
2. Serafeim G. ESG: Hyperboles and Reality. Harvard Business School Working Paper, 2021.

3. Eccles R., Klimenko S. The Investor Revolution. Harvard Business Review, 2019.
4. Edmans A. Grow the Pie: How Great Companies Deliver Both Purpose and Profit. Cambridge University Press, 2020.
5. Mayer C. Prosperity: Better Business Makes the Greater Good. Oxford University Press, 2018.
6. Schanzenbach M., Sitkoff R. Reconciling Fiduciary Duty and Social Conscience: The Law and Economics of ESG Investing. Stanford Law Review, 2020.
7. Ho V. Enlightened Shareholder Value: Corporate Governance Beyond the Shareholder-Stakeholder Divide. Journal of Corporate Law, 2010.
8. Townsend B. From SRI to ESG: The Origins of Socially Responsible and Sustainable Investing. Journal of Impact and ESG Investing, 2020.